

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

|  |     |
|--|-----|
| <b>R.I.Madaliyev</b>   |     |
| Talabalarda vatanparvarlikni artpedagogika vositasida rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari.....  | 312 |
| <b>K.R.Sadikov</b>   |     |
| Mumtoz asarlardagi arxaik so'zlarning lingvistik ahamiyati .....                                       | 316 |
| <b>G.H.Axmedova</b>  |     |
| Ingliz adabiyotida Jorj Eliotning ijodi va tanqidiy realizm .....                                      | 318 |
| <b>R.D.Mustayev</b>  |     |
| Temuriylar davri mutafakkirlari ijtimoiy-axloqiy qarashlarini tadqiq etishning nazariy jihatlari ..... | 322 |
| <b>D.T.Tursunova</b>   |     |
| Ijtimoiy kompetentlik tushunchasining mazmun-mohiyati va didaktik asoslari.....                        | 326 |
| <b>B.Q.Nomonov</b>   |     |
| Matbaa va qadoqlash sohasi terminlarining tarjima qilish muammolari.....                               | 330 |
| <b>Sh.S.Tilavova</b>   |     |
| Turkiston jadidlarining xotin-qizlar ta'limi haqidagi qarashlari.....                                  | 333 |



УО'К: 371.3

**TALABALARDA VATANPARVARLIKNI ARTPEDAGOGIKA VOSITASIDA  
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI**

**PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF DEVELOPING PATRIOTISM IN STUDENTS  
THROUGH ARTPEDAGOGY**

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ПАТРИОТИЗМА У СТУДЕНТОВ С  
ПОМОЩЬЮ АРТПЕДАГОГИКИ**

**Madaliyev Rahmaddin Ismoilovich** 

Farg'onan davlat universiteti Harbiy ta'lim fakulteti o'qituvchisi

**Annotatsiya**

*Maqolada artpedagogikaning talabalarda ijodiy dunyoqarashni rivojlanirishga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan. Artpedagogika innovatsion yo'nalish bo'lib, uning maqsadi yangi kognitiv metodologiyani yaratish, fikrlashning psixologik to'siglarini bartaraf etish, o'qituvchi va talabalar o'tasidagi o'zaro ta'sirni intellektual va ijodiy aks ettirish, tarbiyalash va ijodiy tashkil etishga asoslangan holda qurishdir. Ushbu texnologiya zamonaviy o'quv amaliyotining kasbiy va pedagogik vazifalarini hal qilish uchun ta'lim kontekstiga san'atni integratsiyalash qobiliyatida ayniqsa dolzarbdir. Maqolaning maqsadi - talabalarda ijodiy fikrlashni rivojlanirishga artpedagogika texnikasining ta'sirini o'rganish, va olimlarning artpedagogika haqidagi fikrlari shuningdek, ushbu usullardan foydalangan holda talabalarning kreativ fikrlarini rivojlanirish bo'yicha shaxsiy-ilmiy maslahat va fikrlar beriladi. Ilmiy maqola adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, umumlashtirish, so'rov va tadqiqotlardan iborat.*

**Abstract**

*The article is devoted to the study of the influence of art pedagogy on the development of students' creative outlook. Art pedagogy is an innovative direction, the goal of which is to create a new cognitive methodology, to eliminate psychological barriers to thinking, to reflect intellectually and creatively, to educate and creatively organize the interaction between teachers and students. is to build without. This technology is especially relevant in the ability to integrate art into the educational context to solve the professional and pedagogical tasks of modern educational practice. The purpose of the article is to study the impact of art pedagogy techniques on the development of creative thinking in students, and the opinions of scientists about art pedagogy, as well as personal-scientific advice and opinions on the development of students' creative thoughts using these methods. A scientific article consists of theoretical analysis, generalization, survey and research of literature.*

**Аннотация**

*Статья посвящена изучению влияния художественной педагогики на развитие творческого мировоззрения учащихся. Арт-педагогика – инновационное направление, цель которого – создать новую познавательную методологию, устранить психологические барьеры мышления, интеллектуально и творчески размышлять, воспитать и творчески организовать взаимодействие учителя и учащихся. Особенна актуальна данная технология в возможности интеграции искусства в образовательный контекст для решения профессионально-педагогических задач современной образовательной практики. Цель статьи – изучить влияние приемов арт-педагогики на развитие творческого мышления учащихся, а также мнения ученых об арт-педагогике, а также лично-научные советы и мнения по развитию творческого мышления учащихся с помощью эти методы. Научная статья состоит из теоретического анализа, обобщения, обзора и исследования литературы.*

**Kalit so'zlar:** ta'lim motivatsiyasi, san'at, badiiy pedagogika, rivojlanish, artpedagogika, psixologiya, kognitiv, intelektual.

**Key words:** educational motivation, art, art pedagogy, development, art pedagogy, psychology, cognitive, intellectual.

**Ключевые слова:** учебная мотивация, искусство, художественная педагогика, развитие, художественная педагогика, психология, познавательная, интеллектуальная.

**KIRISH**

Zamonaviy o'qituvchilarni tayyorlash sifatli zamonaviy ta'limging asosiy yo'nalishi bo'lib, butun o'quv jarayoniga va uning alohida tarkibiy qismlariga yuqori talablarni qo'yadi. Talabalarning

## ILMIY AXBOROT

o'z-o'zini rivojlantirish uchun ta'lif maqsadlarining o'zgarishi, sub'ekt-sub'ekt munosabatlariga o'tish va bilimlarni o'zlashtirishda mustaqillik rolining kuchayishi kasbiy kompetensiyalarni egallashda ta'lif motivatsiyasining rolini oshiradi. Bu, o'z navbatida, kognitiv qobiliyatlar va shaxsiy fazilatlarni takomillashtirish bilan bir qatorda, mas'uliyat, mustaqillik va yaxshi tashkiliy qobiliyat taraqqiyoti kabi jarayonlar muvaffaqiyatini belgilaydi. Talabalarda artpedagogika vositalari asosida tarbiyalashga qaratilgan faoliyatlarga bag'ishlangan ko'plab ishlarga qaramay, bu masalada hali ham to'liq yakdillik mavjud emas. Bu, ayniqsa, kreativlik, shaxsiy ijodiy dunyoqarashning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarning ta'siri, uning harakat mexanizmlari, shuningdek, uni qanday boshqarishni tushunish uchun to'g'ri keladi.

Talabalarning ijodkorlik darajasini oshirish muammosini hal qilishning asosiy masalalaridan biri uni rivojlantirish uchun mos usul va texnologiyalarni tanlashdir. Amaliyat shuni ko'rsatadiki, faqat an'anaviy texnologiyalardan foydalanish ushbu muammoni samarali hal qilishga imkon bermaydi. Shu nuqtai nazardan, badiiy pedagogika muvaffaqiyatga erishish va talaba shaxsini o'z-o'zini rivojlantirish bilan bog'liq kasbiy ijodiy ko'nikmalarни amalga oshirish uchun qulay muhit yaratishga qaratilgan maxsus texnologiya sifatida istiqbolli yo'nalish bo'lib ko'rindi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Artpedagogik vositalar, san'at va ta'lifni birga qo'llab-quvvatlovchi vosita va uslublar bo'lib, ta'lif jarayonlarida san'atning o'ziga xos metodlarini qo'llab-quvvatlash uchun ishlataladi. Bu vositalar talabalarning kreativ fikrlarini rivojlantirish, ularning ijodiy potentsialini oshirish va san'atga oid bilimlarini rivojlantirish maqsadida foydalilanladi. Shuningdek professor-o'qituvchilar tomonidan artpedagogik vositalar orqali ta'lif berishni o'rgatish va o'rganishni osonlashtirish uchun foydalanadigan keng ko'lamli materiallar, usullar va resurslarni o'z ichiga oladi. Bu vositalar talabalarni qiziqtirish, badiiy tushunchalarini kuchaytirish va ijodiy qibiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyatdir.

Olimlarning artpedagogika haqidagi fikrlari turlicha bo'lishi mumkin, chunki olimlar ko'pincha artpedagogika yoki ta'lif emas, balki fizika, biologiya, kimyo va boshqa ilmiy fanlar kabi sohalarga ixtisoslashgan. Biroq, psixologiya, nevrologiya va ta'lif kabi sohalardagi ba'zi tadqiqotchilar badiiy ta'lifning kognitiv va rivojlanish jihatlarini o'rganib chiqdilar. Shuni yodda tutish kerakki, fikrlar har xil bo'lishi mumkin va hamma olimlar ham bir xil nuqtai nazarga ega emas. Artpedagogikaning afzalliklari haqida ba'zi olimlar va tadqiqotchilarning umumiy fikrlarini keltirishimiz mumkin:

#### Hissiy farovonlik:

Ta'lif jarayoni shuni ko'rsatadiki, dars mashg'ulotlarida va mustaqil ta'lif jarayonida artpedagogika vositalarining ishtirot etishi hissiy farovonlikka ijobjiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Mazkur faoliyat talabalarga his-tuyg'ularini ifoda etish, stressni kamaytirish va umumiylu ruhiy salomatlikka hissa qo'shishi mumkin bo'lgan muvaffaqiyat tuyg'usini boshdan kechirish imkonini beradi.

#### Ijodkorlik va innovatsiyalar:

Ba'zi olimlarning fikricha, artpedagogik vositalari ta'lif jarayonida ijodkorlikni rivojlantiradi va ijodkorlik ko'pincha innovatsiyalar uchun hal qiluvchi mahorat sifatida qaraladi.

#### Fanlararo ta'lif:

San'at va ilm-fanning uyg'unligi ta'limga yanada yaxlit va har tomonlama yondashishni rivojlantiradi, deb ta'kidlangan.

#### Tibbiy va psixologik nuqtai nazarlar:

Neyrologlar miyaning san'at va ijodga munosabatini o'rganib, badiiy faoliyat asab yo'llari va kognitiv jarayonlarga qanday ta'sir qilishini o'rganishdi. Ushbu sohadagi tadqiqotlar ijodkorlikning nevrologik asoslarini va uni badiiy ta'lif orqali qanday tarbiyalash mumkinligini tushunishga intiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, badiiy va artpedagogika sohasi fanlararo bo'lib, u turli fanlardan, jumladan, ta'lif, psixologiya va nevrologiyadan tushunchalarini o'z ichiga oladi. Ba'zi olimlar kognitiv va hissiy manfaatlar uchun san'atning ta'limga integratsiyalashuvini qo'llab-quvvatlashi mumkin bo'lsa, boshqalari o'rganish va rivojlanishning turli jihatlariga e'tibor qaratishlari mumkin, deb baholaydi.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Har qanday og'ir va murakkab vaziyatda Vatanimizni ko'z qorachig'idek asrash, uning shuhratini dunyoga tarannum etish bilan bog'liq eng muhim tushunchalarini, hayotiy va professional

ko'nikmalarni ilm-ma'rifat, shuningdek, milliy qadriyatlar asosida yoshlarning qalbi va ongiga ilk bolalik davridan boshlab singdirib borish orqali vatanparvar, sadoqatli hamda shijoatli yoshlarni kamol toptirish maqsadida hukumatimiz tomonidan bir qator qarorlar qabul qilingan.

Bunga misol qilib Vazirlar mahkamasining 2023 yil 29 iyundagi 267-sod "2023-2027 yillar yoshlar harbiy- vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish konspensiyasi" qarorida xam yoshlarni harbiy vatanparvarlik masalasiga jismonan va ma'nан sog'lom avlodni tarbiyalashga oid yahlit ta'lim tarbiya tizimining uzviy va ajralmas qismi sifatida qaralib tayyorlangan mukamal dastur deyilsa bo'ladi.

Mazkur konsepsiya yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsad va vazifalari, uning tizimi, asosiy prinsiplari, shakl va uslublari, shuningdek, bosqichlari va yo'nalishlari ko'rsatib o'tilgan.

Konsepsiya belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirish maqsadida qaror talablaridan kelib chiqib bugungi globallashuv va keskin raqobat davrida, dunyoning turli burchaklarida, yuz berayotgan qurolli mojarolar va qarama-qarshiliklar, yangi tahdid va xatarlar oldimizga kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifalarni qo'yyatgani bu masuliyatni xis qilgan holda biz pedagoglar, mamlakatimiz yoshlarini vatanparvarlik, yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning ongiga tinchlik va totuvlikni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash zarurligini chuqur singdirish, «Xalq va armiya-bir tanu, bir jondir!» degan ezgu g'oja asosida yoshlar tarbiyasiga mas'ul vazirlig va idoralarning kuch va imkoniyatlarini bir g'oja, bir maqsad asosida birlashtirishni talab etmoqda.

Bunda pedagogik jamoalarining muhim vazifalari davlatimiz tomonidan chiqarilgan qonun va qarolarga tayangan holda talabalarni yani bo'lgusi oqituvchilarni serqirra, atroflicha ta'sir etuvchi nafosat qadriyatlarga yo'naltirishimiz lozim. Birinchi navbatda milliy qadriyatlar, ona Zamin tabiat, milliy xalq san'ati, sharqning badiiy madaniyati, tarixiga muhabbat tuyg'ularini rivojlantirish. Bu borada asosiy manba sifatida ARTpedagogika vositalari orqali milliy an'analarga boy adabiyot, tasviriy san'at, musiqa, teatr va kino san'atning boshqa turlari bilan tanishtirish ya'ni yurtimizni diqqatga sazovor joylarga ekskursiyalar uyushtirish, o'zbek xalqining o'tmisidagi va zamonaviy turmush tarzi aks etgan milliy spektakllarga va muzeylarga olib borish. Bu esa, talabalarning ongida o'z xalqiga va yurtiga bo'lgan muhabbatni yanada kuchaytiradi, bugungi tinch-totuv, ozod turmushni muhofaza qilish uchun bor kuch-g'ayratlarini safarbar etishga undaydi.

Artpedagogikaning yana bir tarbiya vositasi turlaridan, badiy adabiyot bo'lib unda vatanparvarlik tarbiyasini mavzusi mustahkam o'rinn olgan va uning bugungi kunda rivoji davom etmoqda. Shunisi diqqatga sazovarki, bir qator yozuvchilarimiz o'z ijodlarida yoshlarni vatanparvarlik tarbiyasiga katta ahamiyat bergenlar. Xalqimizning sevimli yozuvchilar O'tkir Xoshimov, Said Axmad, Toxir Malik, Muxammad Ali va boshqalarning asarlarini bugungi kunda xam yoshlarimiz qiziqib mutoala qilmoqdalar.

## XULOSA

Artpedagogika vositasida talabalarda ijodiy dunyoqarash, kreativ fikrlar va ularni kasbiy faoliyatda foydalanishga tayyorlash bo'yicha shaxsiy fikrlarimni berib o'taman.

Ta'lif jarayonida talabalar yutuqlarini rag'batlantirish:

Talabalarni turli badiiy vositalar, uslublar va uslublarni o'rganishga undaydigan muhitni yaratish. Ushbu jarayonda ularga ijodiy fikrlash afzalliklarini aniqlash va keng ko'nikmalarni rivojlantirish imkonini berish.

Tanqidiy fikrlash, ijodiy tahliliy qobiliyatni shakllantirishga undash:

Talabalarni san'at, uning madaniy konteksti va ta'siri haqida tanqidiy fikrlashga undaydigan tadbirlar va munozaralar olib borish. Badiiy asarni tahlil qilish va tanqid qilish, ularning tahliliy baholash qobiliyatlarini rivojlantirishga ko'maklashish.

Fanlararo aloqalar:

Badiiy ta'lifni boshqa fanlar bilan bog'lash, fanlararo yondashuvlarni rivojlantirish. Bu talabalarga turli xil kasbiy sohalarda san'at(badiiy adabiyot, tasviriy san'at, kino, teatr)ning dolzarbligini ko'rishga yordam berish va ularni turli kontekstlarda ijodiy fikrlashga undash.

Professional rivojlanish imkoniyatlari:

Mustaqil ta'lif mashg'ulotlarida, dars mashg'ulotlaridan tashqari tadbirlarda seminarlarga, ko'rgazmalarga va san'at sohasidagi professionallar bilan davra suhbatlari, uchrashuvlар tashkil etish xamda muzeeylarga tashriflarni tashkillashtirish lozim. Ushbu jarayon

## ILMIY AXBOROT

talabalarga san'atdagi amaliy jihatlari haqida ma'lumot olish – kelgusi kasbiy faoliyatida yoshlar bilan ishslashda ijodiy dunyoqarashni shakllantiradi va mustahkamlaydi.

Zamonaviy texnologik yondashuv:

Dars jarayonlarida xalqaro umumjahon madaniy meroslarini ko'rish imkoniyatini zamonaviy IT texnologiyalaridan foydalanilgan holda kuzatuvchi(o'quvchi, talaba-yoshlar)ga taqdim qilishni o'rgatish va odatlantirish.

Artpedagogik vositalardan foydalanish:

Dars mashg'ulotlarida artpedagogika vositalaridan foydalanish orqali talabalarni ijodiy jarayonlari, badiiy qarorlari va ishlarining ta'siri haqida fikr yuritishga undash orqali ularda mulohaza, o'z-o'zini anglash va o'z ijodiy tanlovlарini ifodalash qobiliyatini rivojlantirish, kelgusida o'z faoliyatida foydalanishga tayyorlash.

Ijodiy tafakkurini rivojlantirish:

Ijodiy jarayonda chidamlilik, qat'iyatlilik va kreativ fikrlarining muhimligini ta'kidlash. Bunday fikrlash talabalarga qiyinchiliklarga chidamlilikni va o'z-o'zini takomillashtirishga yordam beradi.

Talabalarni OAVdan unumli foydalanish, jamiyat va davlat tashkilotlari bilan hamkorlikka o'rgatish, bu orqali tarbiyalanuvchi shaxsida vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish:

Talabalarni ijtimoiy ta'sirga ega bo'lgan ommaviy axborot vositalari, televidenya, adabiyot va san'at namunalarini o'z kasbiy faoliyatida foydalanish orqali hamkorlik asosida o'z tarbiyalanuvchilariga ijobiy ta'sir ko'rsatish, ularda vatanparvarlik kabi hissiy jarayonlar rivojlariga turki berishga o'rgatish.

Yangi hayot beqiyos o'zgarishlar hammamizdan fidoyilik va bunyodkorlikni, yanada katta safarbarlikni talab etmoqda. Bu yo'lida biz pedagoglar o'zimizning bilmimiz bilan mamlakatimizni tinchligi va osoyishtaligi yo'lida xalqimizning farovonligi uchun harakat qilmog'imiz yangi avlod kadrlarini yetishtirish, yoshlarni tashabbuskor, bunyodkor, vatanparvarlik kabi g'oyalari bilan kasbhunarga yo'naltirishimiz zarurdir.

Talabalar bilan ishslashda yuqorida ko'rsatilgan ma'lumotlardan unumli foydalangan holda mashg'ulotlardan tashqari vaqtarda, ya'ni axborot soati, ma'naviy-marifiy tadbirdarni tashkillashtirishda, kitobxonlik kechalarida tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday tashqari davlatimiz tomonidan chiqarilayotgan qaror va qonunlardan xulosa qilgan holda chet el tizimida keng qo'llanib kelinayotgan artpedagogik vositalariga tayangan holda pedagogik modeli yaratilib dars mashg'ulotlari tashkillashtirilsa talaba yoshlarga berilayotgan bilim va konikmalar mustaxkamlanib o'z natijasini beradi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston taraqiyoti strategiyasi" Toshkent: O'zbekiston, 2022 y. 4-27 b
2. "2023-2027 yillar yoshlar harbiy- vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish konspensiyasi". Vazirlar mahkamasining 2023 yil 29 iyundagi 267-sen qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 22-dekabr kunidagi Respublika Manaviat va marifat kengashining kengaytirilgan majlisdagi nutqi materiallari. "Xalq sozi"- 2023-yil 23-dekabr soni.
4. Sabirov Z. "O'quvchilarni harbiy vatanparvarlik tarbiyasida badiy adabiyot va musiqa sa'atining muhim omillari" mavzusidagi Xalqaro konferensiyanagi maqolası 1-sen 257-258 b.
5. Madaliev R. "Talaba – yoshlarning xarbiy vatanparvarlik tarbiyasida artpedagogik vositalarining ahamiyati" FarDU ilmiy xabarları 2023 y. №1son 51-54 b.
6. Madaliev R. "Talabalarda harbiy vatanparvarlikni artepedagogik vositasida rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari" mavzusidagi maqola. FarDU Respublika ilmiy amaliy anjumani 20-may, 2023-yil 136-136-b.
7. Madaliev R. "Talaba-yoshlarning xarbiy vatanparvarlik tarbiyasida artpedagogik vositasida rivojlantirish texnologiyasi " mavzusidagi maqola. "Mirzo Ulugbek nomidagi Ozbekiston milliy universiteti" jurnali 1/8/1, 2023y. 137-139-b.
8. Madaliyev Rahmaddin Ismoilovich - "Talaba - Yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida ARTpedagogik vositasida rivojlantirishning nazariy metodologik asoslari" mavzusidagi maqola. Oriental Renaissance: Innivative, educational natural and social sciences jurnali 3(4/2), aprel.2023 y.51-56 b.
9. SH.X.Tillavoldiev. "Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi asoslari" darslik. Farg'ona- 2023 yil.